

**RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QO'YILADIGAN
TALABLAR.**

Nazarova Zarnigor

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

.Abdumalikova Ozoda Olimjon qizi

PTA "Sog'lioni saqlash menejmenti" fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada rahbar o'zi kim? Rahbarning psixologiyasi va uning mehnatidagi talablar, xodimlari ortasidagi boshqaruvsizlubi, jamoa ichida aytishi mumkun bo'lgan va bo'lmasagan gaplar, rahbar boshqaruvidagi obektiv va subektiv omillarni, ma'daniyati va o'zini tutishi, rahbar insonning o'zida bo'lishi kerk bo'lgan xususiyat va fazilatlar haqida ma'lumotlar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Rahbar, psixologiyasi, rahbar mehnatidagi talablari, omillar, rahbar ma'daniyati, odobi, boshqaruvsizlubi, qoidalari, byurokratizm, salbiy quşurlari.

Аннотация: Кто сам лидер в этой статье? Широко освещается психология руководителя и требования к его труду, стиль управления среди его сотрудников, то, что он может и не может сказать в коллективе, объективные и субъективные факторы управления руководителем, его культура и поведение, информация о качествах и качествах, которыми руководитель должен обладать в самом человеке.

Ключевые слова: Руководитель, его психология, требования в труде руководителя, факторы, культура руководителя, этикет, стиль управления, правила, бюрократизм, негативные недостатки.

Annotation: The boss in this article, the psychology of the leader and the requirements for his work, the management style among his employees, what can be said and what cannot be said in the team, objective and subjective factors in the management of the leader, his culture and behavior are necessary . to be in the leader himself. Information about the features and qualities of the product is widely covered.

Key words: Boss, psychology, boss's job requirements, factors, culture of boss, manners, management style, rules, bureaucracy, negative vices.

Biz bilamizki rahbar va xodim o'rasisidagi, mosabat ish faoliyat samarasini uchun juda muhim. Asosiy e'tibor ishning samarasiga qaratilgandan keyin rahbar va xodim o'rta sidagi munosabat ijobiy bo'lsa ishda ham samara bo'ladi. Rahbar inson faqatgina rahbar bo'libgina qolmay xodimlari

o'rtasida liderlikni ham bajarishi kerak. Xodimlariga qo'yayotgan vazifani o'zi ham nima ekanligini tushunishi kerak. Shundagiga rahbar xodimlar oldida ham obro'li shaxs ham yetuk boshqaruvchi bo'la oladi.

Rahbar-bu chiqaradigan, oxirgi qaror qabul qiladigan, xodimlarni jazolaydigan yoki ragbatlantiradigan va o'ziga boysindira oladigan shaxs. Rahbar eng avvalo nuqtni ushlay olishi va o'ziga qat'iy ishonch bo'lgan ko'z qarashlarga ega bolmog'i lozim. Rahbarlik uslubi butunlay individual asosga ega deb qarash noto'gri bo'ladi. Rahbarlik uslubining obektiv va subektiv omillari mavjud.

Obektiv omillar:

Boshqarish qonunlari va tamoyillari
Rahbarlarga bo'lgan yagona talablar
Jamoodagi sotsial-ruxiy muhit
Aniq va ravon nutq
Yangi g'oya va takliflar

Subektiv omillar:

Ishchanlik va shahsiy sifatlari
Mijozi, qobiliyati va qiziqishi
Bilimi, ko'nikmasi va maxorati
Tadbirkorligi va tashabbuskorligi

Rahbar inson o'ziga yarasha ma'daniyatga ham ega bo'lishi kerak. Rahbar ma'daniyati deganda rahbar odobi va iqtidori ustidagi dialektik bog'lanishtushuniladi. Bu bog'lanish quyidagi fazilatlar majmuida o'z aksini topadi: Rahbar madaniyati: odob+iymon+insof+adolat+iqtidori.

Rahbar xodimlariga ruhiy quvvat bolishi uchun o'zining psihologiyasi ham standartga javob berishi kerak. Rahbarning psihologiyasi talabga javob bermay turib, xodimlarini qoniqarli bo'yso'ndira olmaydi. Shu bilan birga rahbar inson o'ziga yarasha odobga ham ega bo'lishi kerak. Umuman olganda odob ham ikki xil bo'ladi. Ya'ni "xikmat" va "xizmat" odobi. Xikmat odobi oqillik va to'g'ri yo'lga yetaklasa, xizmat odobi badavlatlik va obro'ga yetkazadi. Har ikkisi ham ulug' fazilat bo'lib, biri aziz, ikkinchisi qudratlidir. Rahbar boshqaruvi va mehnatlari uch xil bo'lishi mumkin.

1. Avtoritar uslub
2. Demokratik uslub
3. Liberal uslub

Avtoritar uslubda rahbar buyruq chiqarish, xodimlarga jazo berish yoki ragbatlantirishda jamoa fikrini inobatga olmaydi. Ya'ni jamo bilan ishlamaydi.

Demokratik uslubda jamoa bilan birga ishlashi, ishlab chiqarish va boshqarishda xodimlatni jalg qilsih va ular fikrini tinglash, barcha bilan samimiyligi va barobar ishlash-muomalaga kirishgan holda faoliyat olib boradi.

Liberal boshqaruv uslubi bunda rahbar irodasiz, tashabbussiz boladi. maqsadga ko'ra qilingan rejalarda ma'suliyatni o'z zimmasiga olishni yoqtirmaydi. talabchan bo'lmaydi, hodimlarni sust nazarat qiladi.

Adolatli jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorligi, ishiga rag'batli kuchli bo'ladi.

Xodimlarni izzat-nafsoniuatiga tegmay, ularni haqorat qilmay, ularga ta'sir etishda roya qilinishi kerak bo'lgan 9 ta qoida mavjud.

1-qoida. Ishni hamsuhbatingizni maqtashdan va uning yaxshi jihatlarini samimiyligi e'tirof etishdan boshlang.

2-qoida. O'zgalarning xatosini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita ko'rsating.

3-qoida. Dastavval o'z kamchilik va nuqsonlaringizni gapiring, so'ngra hamsuhbatingizning tanqid qilishga kirishing.

4-qoida. Hamsuhbatingizga faqat buyruqlar berishni o'rnioga savollar bering.

5-qoida. Odamlarga o'z obro' e'tiborlarini saqlab qolishlariga imkon bering.

6-qoida. Xodimlaringizni juda klichik bo'sa ham muvaffaqqiyatlarini e'tirof eting, maqtang hamda har bir yutuqlarini qayd eting.

7-qoida. Odamlar o'z fikrlarini bildirishlariga o'zlarini oqlashlariga imkon yaratting, toki ular sizn bu iltifotingizni anglashsin.

8-qoida. Rag'batlantirishga urining. Shunday tasavvur uyg'otingki, xato qilgan xodimningiz qilgan xatosin oson tuzatsa bo'ladi va qaytib yuziga solinmasligini anglasin.

9-qoida Shunga erishingki, odamlar siz tavsiya etgan ishlarni bajarganlaridan xursand bo'lischsin.

Ushbu qoidalarga amal qilgan rahbar nisbatan xodimlar ongida ijobjiy taasurotga, obro'ga erishishi mumkun.

Rahbar nutq so'zlayotgan yoki umuman majlis vaqtlarida ham har bur nutqi xodimlari psixologiyasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rahbarning jamoa o'rtasida suhbat dovomida aytishi mumkin bo'lgan va bo'limgan gaplash ham mavjud. Masalan:

Rahbar aytishi mumkin:

Men o'z fikrimni aniq va to'la ayta olaman.

Men xatoga yo'l qoydim va uni tuzataman.

Buni boshqacha tushuntirishga harakat qilaman

Extimol, biz bunga turlicha yondashar ekanmiz.

Asrlab yashar ekansanu, asrlab o'rganar ekansan.

Rahbar aytishi mumkin emas:

Siz meni tushunolmaysiz.

Bu mening aybim emas.

Yuz martalab sizga takrorlayabman.

Mening ish tajribam shu.

Siz noxaqsiz men o'z fikrimda qolaman.

Rahbar hamma narsadan ham oldin bilib olihsi kerak bo'lgan oddiy bo'libgina qolmay asosiy bo'lgan narsa ham bor. Rahbar shu narsani tushunib olishi kerakki, u xamma ishlarni miridan sirigacha bilib olishi shart emas, bunga hojat ham yo'q. U quyi boshqarish bo'g'inlariga xuquqlar berish, ma'suliyat va vazifalar yuklash usulini egallab olmog'i kerak. Xuquqlar berish, ma'suliyat yuklash va maqsadli topshiriqlar berishni boshqarishda mehnat taqsimotining muxim shakli, uning samaradorligini oshirishda qimmatli imkon hisoblanadi. Ish faoliyat davomida rahbarning o'zida ham mehnat talablari mavjud. Dovyuraklilik-bunday rahbarlarda mardonavorlik, botirlilik, dadillik, mavjud boladi. Ular omadsizlikdan qo'rqlaydi. Sabrlilik-bunday rahbarlar muvaffaqiyatga birdaniga erishish mumkin emasligini yaxshi tushunadi. Unga faqat bardosh va sabr-toqatli bo'lib, sabot-matonat bilangina qiyinchilik orqali erishish mumkinligini biladi. Yaxshi niyatilik-bunday rahbar xayrirox va iltifotli bo'ladi. Kamtarinlik-bunday rahbar kamtarlikning deyarli xar doim istedodga to'gri munosib ekanligini, kamtarlikni yetishmasligi esa nodonlikning darakchisi bo'lishini tushunadi. Rahbar shu talablarga roya qilmas ekan, u o'z rahbarlik usulida quyidagi salbiy xodisalarga yo'l qoyishi va o'z obruyini yo'qotishi mumkin: Byurokratizm, balandparvozlik, xadiksirash, natijasizlik, samarasizlik. Balandparvozlik-o'zining ko'zga ko'rinas yutuqlarini ham gapiaveradi. Yuqori organlardan maqtov eshitishni yoqtiradi va o'zi haqida shov-shuv bo'lishini xoxlaydi. Byurokratizm-ishlab chiqilgan qoida, qo'llanmalar doirasidan chiqmaydi, uni o'zining birdan bir maqsadi deb biladi. Xadiksirash-uncha myrakkab bo'ligan narsalardan ham shubhalanadi. Xar ishda sustkashlik qiladi. Natijasizlik-shu yuqoridagi xolatlar qorqish, xadiksirash oqibatida ishini oxirgacha olib borolmaydi va natijaga erisholmaydi. Ishda samarasizlik tashabbuskor, dovyurak va sabrsiz bo'lgani uchun ishida samara bo'lmaydi. Rahbarning mehnati davomida bundan tashqari yana salbiy qusurlari ham bor.



Xudbinlik
Takabburlik
Maqtanchoqlik
Tamagirlik
Yovuzlik,Zolimlik
Xushomadgoylik

Rahbar boshqaruvi psixologiyasi. Rahbar faqatgina rahbarman deb o'tirmay jamoasi fikrini eshitishi,ular o'rtasida liderdek ish ko'rishi va jamoa fikrinio eshitishi kerak. Rahbar o'z rahbarlik qobig'idan chiqib,xodimlari bilan xamjihat va bir butun bola olishi kerak.Ammo har qanday paytda ham xodimlar psixologiyasidan kelib chiqqan xolatda vazifa yuklashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Egallab turgan lavomizidan maxrum maxrum bolmasligi uchun quyidagi 10ta qoidaga riosa qilmog'i lozim.

- 1.Iloji boricha ishga ko'miling.
- 2.Kompyutyerni o'rganing.
- 3.Chet tilini o'rganing.
- 4.O'z arxivingizni yarating.
- 5.Xar doim "xa" deng.
- 6.Chiroyli imo-ishoro qiliahni o'rganing.
- 7.Malakangizni mutta'sil oshirib boring.
- 8.Boshqalarga yangilik bo'lgan ishlarni bajaring.
- 9.Ish vaqtin xar doim ham bir hil bo'lmasin.
- 10.Har qanday muammoni muhokama qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Xudoyberdiyev "Shaxs va milliy psixologiya"
2. Farobiy abu Nasr. Fozil odamlar shaxri.-T: A.Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti,1993.-B.167.6
3. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. O'quv qo'llanma – Toshkent,2005.-149b
4. Karimova V. Xayitov O. Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma.-Toshkent,2008
5. Quronboyev Q. HAyitov U. Rahbar ma'naviyatini boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati.-Toshkent.Turon zamin ziyo.2016.-137b
6. Базаров Т.Ю. Управление персоналом. М.2002,
7. Р.И. Мокшановю Психология переговоров. М.-2002,